NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AKRAMOVA DILAFRUZ SHUXRAT QIZI

LINTER ISHCHI KAMERASINI TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robotexnika tizimlari

TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2026 yil

O'UK 677.051.152.6

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AKRAMOVA DILAFRUZ SHUXRAT QIZI

LINTER ISHCHI KAMERASINI TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robotexnika tizimlari

TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2026 yil

Сканировано с CamScanner

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5094 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) (va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich** Texnika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Azizov Shuxrat Mamatovich** texnika fanlari doktori, dotsent
	Ortiqova Kamola Insopaliyevna texnika fanlari falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "14" fevral soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel: (99869) 228-76-71 Faks: (99869) 228-76-75; e-mail: namdtu_info@edu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 3-binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (122-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi 7 uy. Tel: (99869) 228-76-71 Faks: (99869) 228-76-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "29" yanvar kuni tarqatildi.
(2025 yil "16" dekabrdagi 5/1-raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., dotsent

Sh.A.Mahsudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, t.f.f.d, dotsent

A.A.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta xomashyosini qayta ishlash, xususan tolali chigitni iste'molga va qayta ishlashga tayyorlashda yuqori unumdorlikka ega texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida 3,5 mln tonnadan ortiq paxta yetishtirilishini va yig'ilgan paxtani dastlabki jinlash jarayonidan so'ng chigitda ma'lum miqdorda momiq qoldiqlari bo'lishini hisobga olsak». uni qayta ishlashda linterlash jarayonida tozalash va momiqni ajratib olishda, chigitning shikastlanish darajasini kamaytirishini ta'minlaydigan mashinalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, momiqli chigitni linterlash uchun ish unumdorligi yuqori hamda yuqori darajada shikastlanishlarga olib kelmaydigan texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ekin uchun yoki texnik chigitni hosil qilishdan oldin uning yuzasida qoladigan momiqni linterlash orqali ajratib olish uchun yangi yuqori unumdorlikka ega va shikastlanish darasini kamaytirish borasida yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada linter mashinasining asosiy ishchi organlaridan biri - to'zitg'ich (to'zitg'ich)ning konstruksiyasi, geometriyasi va parraklar sonini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aniqlanishicha, an'anaviy 4-parrakli to'zitg'ichlarning kinematik noustuvorligi, urug'lik valikda siljish kuchlarining ortishi, ishchi kameradagi chigitli valikning massa va qolish vaqtining optimallshtirilmaganligi, chigitli valikning arrali silindr bo'ylab barqaror taqsimlanmasligi natijasida chigitning shikastlanish darajasi yuqoriligi, linter mashinasining ish unumdorligi pastligi kabi kamchiliklari ish sifatini cheklab kelmoqda. Shu bois, 5-parrakli to'zitg'ichning yangilangan konstruksiyasini ishlab chiqish va uning texnologik afzalliklarini isbotlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Respublikamizda paxta yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida mehnat hamda uskunalarning yaroqli muddatini uzaytirish, resurslarni tejashi, linterlash jarayonidagi shikastlanishlar va yo'qotishlarni qisqartirish, momiqni ajratib olish sifati va barqarorligini oshirish imkonini beradigan yangi konstruksiyali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan: «...qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli oshirish...»[1] bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani qayta ishlash jarayonini modernizatsiya qilish, linter mashinalarining ishchi kameralarini takomillashtirish, urug'lik chigitda lint

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

Сканировано с CamScanner

qoldig'ini minimal darajaga tushirish va tola sifati hamda chiqimini oshirishga qaratilgan yangi texnik yechimlarni amalga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-son «Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish...», 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son qarori, hamda 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-sonida "Paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish konsepsiyasi"[2], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 dekabrdagi «Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va kooperatsiya aloqalarining yangi tizimini joriy etish bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining javobgarligini oshirish to'g'risida» Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII "Mexanika va mashinasozlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Paxta chigitini linterlash jarayoni, linter mashinalarining ishchi kamerasidagi dinamik jarayonlar, arrali silindr va to'zitg'ichning texnologik samaradorligi bo'yicha fundamental tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSH, Hindiston va O'zbekiston ilmiy markazlarida izchil olib borilgan.

Linterlash jarayonining fizik-mexanik asoslari, arrali silindr tishlarining lint tolasi bilan o'zaro ta'siri va urug'lik valikdagi kuchlanishlar dinamikasi bo'yicha eng yirik ilmiy maktab AQSHning USDA–ARS Cotton Ginning Research Unit (Stoneville, Mississippi) laboratoriyasida shakllangan. Bu markazda W.L. Anthony, E.M. Davis, W.F. McCaskill, D.A. Baker, B.S. Chewning, C.G. Armijo kabi olimlar tomonidan linter agregatlarining konstruksiyasi, arrali silindr tezligi va tozalash sifatining bog'liqligi keng ko'lamda o'rganilgan. Ularning ishlarida lint ajralishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar - chigitning mexanik mustaxkamligi, tish geometriyasi, to'zitg'ich konstruksiyasi va kameradagi havo oqimi dinamikasi bo'yicha fundamental qonuniyatlar asoslangan.

O'zbekistonda linterlash texnologiyasi va linter mashinalarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar asosan O'zPITI (hozirgi TITLSMTI), Toshkent irrigatsiya va mexanizatsiya institutlari va Paxtasanoat TICHB korxonalarida olib borilgan. Xususan, K.D. Astanqulov, A.T. Rosaboyev, S.M. Mo'minov, Yo.Z. Karimov, M.R. Karimov kabi olimlar linter mashinalarining texnologik rejimlarini, to'zitg'ichning an'anaviy 4-parrakli konstruksiyasini va arrali silindrning aylanish tezligiga bog'liq ravishda chigit shikastlanishi hamda lint ajralishi sifatini tahlil qilganlar. Ular linter kamerasidagi aralashmalarning harakat yo'nalishi, chigit valigining zichligi va tish–tolalar o'zaro ta'siri kabi jarayonlarni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

---

[2] PQ-308-sonida "Paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish konsepsiyasi". PQ-308-son 07.07.2022. Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida

Сканировано с CamScanner

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mashinalar paxtaga dastlabki ishlov berish jarayoniga muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinayotgan bo'lsada, ammo linter mashinasining ish unumdorligini oshirib hamda chigit shikastlanishini kamaytirishga erishadigan ishchi qismlarni ishlab chiqish va ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika unversiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Linter ishchi qismlarining samarali konstruksiyasini yaratish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'zitg'ich ishchi organi konstruksiyasini takomillashtirish orqali 5LP rusumli linterlash mashinasining ish samaradorligini oshirishdan iborat. Bunga uning konstruksiyasini to'rt parrakli konstruksiyadan besh parrakli konstruksiyaga o'zgartirish, yulduzchalar massasi va geometriyasini optimallashtirish, inersion yuklamalarni bir tekis taqsimlash, shuningdek, momiq ajratishning yuqori sifatini saqlagan holda tebranish va chigitning mexanik shikastlanishini kamayishini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun dissertatsiya ishida quyidagi vazifalar hal qilindi:

linterlash mashinalari to'zitg'ichlarining mavjud konstruksiyalarini tahlil qilish va ularning ish unumdorligi, titrash xususiyatlari va mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi kamchiliklarini aniqlash.

geometrik parametrlari va massasi optimallashtirilgan besh parrakli to'zitg'ichning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish.

to'zitg'ichning chigit valigi bilan o'zaro ta'sir dinamikasini matematik modellashtirish, parrakchalar soni va ularning shaklining ish jarayoniga ta'sirini aniqlash.

SolidWorks Simulation muhitida mustahkamlik, toliqish yuklamalariga chidamlilik va chastotaviy tahlil hisoblarini o'tkazish.

to'zitg'ichning tajriba nusxasini tayyorlash va uni 5LP linter mashinasi tarkibida laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinovlarini o'tkazish.

yangi konstruksiyaning asosiy texnologik ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash: ish unumdorligi, tebranish darajasi, chigitning shikastlanish darajasi, momiqning toladorligi.

bazaviy va takomillashtirilgan konstruksiyani ishlatishda olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish.

to'zitg'ichning takomillashtirilgan konstruksiyasini mavjud linterlash mashinalari modellariga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida linter mashinasi ishchi kamerasining konstruktiv va texnologik parametrlari, xususan, chigitdan momiqni ajratish samaradorligiga ta'sir etuvchi to'zitg'ichning konstruksiyasi va ish rejimlari, mashinaning ish unumdorligi, chigitning shikastlanish darajasi, titrash darajasi va yakuniy mahsulotning toladorligi olingan.

Tadqiqotning predmeti linterlash mashinasining ishchi kamerasida to'zitg'ich ishchi organlarining chigit valigi bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlari hamda

to'zitg'ichning konstruktiv va rejim parametrlarining ish unumdorligi, momiq ajratish sifati, chigitning mexanik shikastlanish darajasi va uskunaning vibratsion xarakteristikalariga ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanilgan:

takomillashtirilgan to'zitg'ichning konstruktiv parametrlarini va linterning ishchi kamerasida sodir bo'ladigan jarayonlarni nazariy asoslash uchun analitik usullar;

urug'lik valigining to'zitg'ich parraklari bilan o'zaro ta'sirining kinematik va dinamik jarayonlarini tavsiflash uchun matematik modellashtirish usullari;

SolidWorks Simulation muhitida konstruksiyaning statik, chastotali va charchash hisoblarini o'tkazish uchun chekli elementlar tahlilining (FEA) sonli usullari;

modernizatsiya qilingan uzelni vibrometriya, ish unumdorligini o'lchash va urug'larning shikastlanish darajasini baholashdan foydalangan holda laboratoriya va ishlab chiqarish sinovlari uchun eksperimental usullar;

eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlash va talqin qilish, shuningdek, adekvat matematik modellarni qurish uchun regression tahlil usullari;

ishchi kamera elementlari va to'zitg'ich parraklarida yeyilish, mikrozararlanish va yoriqlar hosil bo'lish xususiyatini o'rganish uchun optik va skanerlovchi elektron mikroskopiyani qo'llagan holda fraktografik tahlil o'tkazish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

linter ishchi kamerasidagi to'zitg'ichga tushayotkan yuklamalarni barqarorlashtiruvchi kompyuter modellashtirish usuli yordamida 5LP arrali linter uchun besh parrakli to'zitg'ichning ratsional konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

material sarfi jihatdan tejamkor hamda mustahkamlik zaxirasi butunlay tushayotgan yuklanishlarga javob beradigan yangi yulduzchasi konstruksiyasi massasini simulyatsion optimallashtirish usuli taklif etilgan;

minimal tebranish va shikastlanishda maksimal unumdorlikni ta'minlaydigan optimal aylanish tezligi, kinetik va dinamik omillarni hisobga olgan holda to'zitg'ichning chigit valigi bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlari aniqlangan;

linter ishchi kamerasi elementlari va paxta chigitining fraktografik tahlili ishchi organlar bilan o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'lgan abraziv yeyilish va mikro shikastlanishlari ularning xarakteristikasi orqali kelib chiqishi sabablarini birinchi marta fraktografik tahlilni yangi usuli taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yuqori samarali to'zitqich konstruksiyasi ishlab chiqildi. Matematik modellashtirish va eksperimental ma'lumotlar asosida momiqning mexanik shikastlanishini kamaytiradigan, uning sifatini yaxshilaydigan to'zitqichlarning yangi geometrik parametrlari va konstruktiv o'zgarishlari taklif etildi. O'zgarishlar yulduzcha detalining shaklini, parraklar sonini va shunga mos ravishda plankalarni o'zgartirishni o'z ichiga oladi, bu esa momiq chiqish tezligini va linter unumdorligini oshirishga, momiq yo'qotilishini kamaytirishini aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy qoidalar, tamoyillar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari, aprobatsiya va joriy etishning ijobiy natijalari, shuningdek, natijalarni taqqoslash, ularning ma'lum baholash mezonlari bo'yicha adekvatligi, ijobiy natijalarning qiyosiy tahlili bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati yangi yuqori unumdorlikka ega va chigitning mexanik shikastlanishini kamaytiradigan to'zitqich konstruksiyasi taklif etildi. Amaliy ahamiyati esa taklif etilgan to'zitqichni qollash natijasida chiqayotkan chigit shikastlanishi kamayishi va linter mashinasini ish unumdorligi o'sishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Linter ishchi kamerasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo'yicha natijalar asosida:

Linter mashinasining yangi konstruksiyali to'zitqichi Namangan viloyati "Namangan To'qimachi Klaster" MCHJ To'raqo'rg'on PTK ga qarashli "To'raqo'rg'on paxta tozalash" korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan. («O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi» AJ ning 2025 yil 1-apreldagi №03/25-681-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 5-parrakli to'zitqich asosida linterlash jarayonida chigit valigida hosil bo'ladigan zichlikni o'rtacha 2,1% ga oshirilishi orqali chigitli valik barqarorligini oshirilgan. Shuningdek chigit shikastlanishi 11% ga kamayishiga, chigitning ishchi kamerada qolish muddatini 3,5 sekundga kamayishiga, linterlash jarayonining umumiy unumdorligi 12.5% ga oshishiga erishilgan. Valikda ortiqcha yuklanishlarni to'zitg'ich va arralarga ta'sir etishi kamayishi natijasida planka va arraning yaroqlilik muddati 95 soatgacha ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta Respublika konferensiyalarda va ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta maqola, tezislar va Intellektual Mulk agentligi tomonidan Dasturiy Guvohnomalar olingan, 4 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2ta Respublika konferensiyalarida, 6 ta ilmiy jurnallarda maqola, shu jumladan, 2 ta xorijiy jurnal va 4 ta Respublika OAK tasarrufidagi jurnallarda, 4 ta Intellektual Mulk agentligi tomonidan Dasturiy Guvohnomalar olingan, 1 ta xalqaro Lambert nashriyotida Monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatlari bayon etilgan.

Paxtani qayta ishlash texnologiyasining rivojlanishi va kalta tola olish samaradorligini oshirish eng mas'uliyatli operatsiyalardan biri - chigit sirtidagi qoldiq momiqni mexanik usulda ajratib olishni amalga oshiradigan linter mashinalarining konstruksiyalarini takomillashtirish zaruratini belgilaydi. Arrali linterlashning asosiy tamoyillari XX asrning boshlarida shakllangan bo'lsa-da, tola sifati, chigitning

Сканировано с CamScanner

saqlanishi va uskunaning energiya samaradorligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar sezilarli darajada oshdi. Bu esa linter ishchi organlari kinematikasini, birinchi navbatda, chigit valigining shakllanish dinamikasi va barqarorligini belgilovchi ishchi kamera va to'zitqich konstruksiyasini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan tadqiqotlarning yangi avlodi paydo bo'lishiga olib keldi.

Arrali linterlarning tarixiy rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, asosiy konstruktiv uzellar - arrali silindr, ishchi kamera va to'zitqich ketma-ket murakkablashib va takomillashib borgan. Dastlabki PO-160 va PMP-160 modellarida arralar soni 106-141 va aylanish chastotasi 400-700 ayl/min atrofida bo'lgan silindrlar qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik arralar soni 160 tagacha oshirildi, bu esa bir o'tishda momiq olishni sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Mahalliy sanoatda paxta tozalash zavodining texnologik liniyasi tarkibida uch marta momiq ajratishga mo'ljallangan 5LP rusumli linterlar keng tarqalgan. Biroq, ko'p yillik foydalanish shuni ko'rsatdiki, ushbu mashinalar yuqori pasport xususiyatlariga ega bo'lsa ham, bir qator tizimli kamchiliklarni saqlab qoladi: chigit valigini shakllantirishning beqarorligi, ish unumdorligi o'zgarganda tebranish darajasining oshishi, chigitning mexanik shikastlanish ehtimoli, shuningdek, kamera haddan tashqari yuklanganda momiqning notekis chiqishi.



1-rasm. PMP-160 linteri

Mamlakatimiz paxta zavodlarida qo'llanilayotgan linterlarning ishlash xususiyatlarini tahlil qilish alohida e'tiborga loyiqdir. Chigit tarog'i, zichlik klapani, yon devorlar va kolosnikli panjarani o'z ichiga olgan ishchi kamera konstruksiyasi

Сканировано с CamScanner

chigit harakatining o'ziga xos sharoitlarini shakllantiradi. Markazdan qochma kuchlar chigit valigining zich tashqi qatlamini hosil qiladi, u zichlik klapani bilan ushlab turiladi va tolalarning bir tekis ajralishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kolosniklar geometriyasi, taroq profili yoki tirqishlarni sozlashdagi har qanday og'ishlar jarayon uzluksizligining buzilishiga va olinmagan momiq ulushining oshishiga olib keladi. Xorijiy tadqiqotlar ham ushbu sozlashning kritikligini ko'rsatadi: arra tishining chigitga nisbatan hujum burchagining minimal o'zgarishi momiqni ajratib olish xarakteriga va qobiq yuzasida mikroyoriqlar ehtimoliga ta'sir qiladi.



2-rasm. Linter 5LP

1 - kolosnikli panjara; 2 - urug' tarog'i; 3-suv purkagich; 4-ishchi urug' kamerasi; 5-zichlik klapani; 6-magnitli plita; 7-ta'minlovchi nov; 8-tekislovchi qoziqli-plankali baraban; 9-ta'minlovchi valik; 10-impulsli variator; 11-to'rli yuza; 12-chiqindi shnegi; 13-havo so'rish kamerasi; 14-ko'cha soyaboni; 15-lint chiqaruvchi patrubka; 16-arrali silindr; 17, 18-lotok

MDH mamlakatlari, AQSH, Hindiston, Turkiya va Xitoyda taqdim etilgan linterlash mashinalarining texnik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jahon ishlab chiqaruvchilari avtomatlashtirish elementlarini - adaptiv ta'minlash tizimlari, havo kameralarining intellektual to'siqlari, vallarning aylanish chastotasini avtomatik ravishda sozlash, tebranish va chigit valigi zichligini kuzatish datchiklarini tobora faolroq joriy etmoqdalar. Bunday yondashuvlar tozalash selektivligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va ishchi organlarning yeyilishini minimallashtirish imkonini beradi. Xorijiy modellar (Lummus Sentinel II, Continental Eagle 24D, Bajaj Golden Eagle 24D va boshqalar) yuqori darajada avtomatlashtirilgan bo'lib, yo'qotishlarni kamaytirish va momiq olishning bir tekisligini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda keng tarqalgan mexanik linterlar sozlashda asosan

qo'lda ishlaydi, bu esa jarayonning barqarorligini cheklaydi va operatorning doimiy ishtirokini talab qiladi.

Linterlash mashinalari konstruksiyasini takomillashtirishda jinlangan chigitning agregat ishchi organlari bilan o'zaro ta'sirlashuv mexanikasini, chigit valigi shakllanishining kinematik xususiyatlarini, siklik yuklamalar ta'sirida materialning yemirilish qonuniyatlarini chuqur o'rganish talab etiladi. Nazariy hisob-kitoblar, laboratoriya kuzatuvlari va kompyuter modellashtirishining uyg'unligi to'zitqichning an'anaviy to'rt parrakli konstruksiyasidan yanada barqaror va energiya tejamkor linterlashni ta'minlaydigan modernizatsiya qilingan besh parrakli variantiga o'tishni asoslash imkonini beradi.



3-rasm. 5LP linterlash mashinasi to'zitqichining konstruksiyasi

To'zitqichning aylanishi ta'sirida linter kamerasida mustahkam halqasimon chigit valigi hosil bo'ladi, unda tashqi qatlam zichlashadi, ichki qatlam esa ancha yumshoq strukturani saqlab qoladi. Ushbu dinamik tizim markazdan qochma va urinma kuchlar ta'sirida harakatlanadi, ularning qiymati rotorning burchak tezligi va parraklar geometriyasi bilan belgilanadi. Markazdan qochma kuch urug'larni kamera devorlariga siqadi, urinma tashkil etuvchi esa materialning aylanishini va aralashishini ta'minlaydi. Bu jarayonlarning bir tekisda borishi urug'larning arrali silindr tishlari bilan barqaror kontaktda bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

Linter ishchi organlari va chigit yuzasining shikastlanish morfologiyasi konstruktiv parametrlarni to'g'ri tanlashning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. To'zitqich plankalarining mikroskopik tadqiqotlari rivojlangan nuqsonlar tizimini - mikroabraziv yeyilish, charchash yoriqlari, metall sirt qatlamining bo'yalishini aniqladi. Ushbu nuqsonlarning shakllanish mexanizmi, ayniqsa, kuchlanishlarning mahalliy konsentratsiyasi zonasida, ko'p martalik siklik zarbalar va urug'larning plankalar bo'ylab ishqalanishi bilan bog'liq.



4-rasm. Mikroskop ostida to'zitqich plankasining olingan tasviri

Mikroskopik kuzatuvlar majmuasi quyidagilarni tasdiqlaydi: to'rt parrakli konstruksiyada ishchi organlarning mavjud geometriyasi yuklamaning bir tekis taqsimlanishini ta'minlamaydi, bu esa yeyilishni tezlashtiradi va chigit valigi bilan o'zaro ta'sir samaradorligini pasaytiradi.

Fraktografik tahlil shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan chigitlarning 50% dan ortig'i to'zitqich parragiga urilish natijasida shikastlangan bo'lib, bu olingan tola sifatining pasayishiga olib keladi.

Linterlash jarayonida mexanik ta'sir natijasida yuzaga keladigan shikastlanishlarga uzilishlar va yoriqlar kiradi, bu ularning tovar xususiyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi.

Mustahkamlik va dinamik xususiyatlarni batafsil baholash uchun SolidWorks Simulation muhitida standart va modernizatsiya qilingan konstruksiyalarni modellashtirish amalga oshirildi. Hisoblash natijalari kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini, egilish kattaliklarini, mustahkamlik zaxiralarini va vibratsion o'ta yuklanishlarga chidamlilikni taqqoslash imkonini beradi.

Asosiy to'rt parrakli konstruksiya 22 MPa minimal kuchlanishni, taxminan 0,02 mm egilishni va yuqori mustahkamlik zaxirasini (11) ko'rsatdi. Bu ko'rsatkichlar yaxshi barqarorlik, lekin bir vaqtning o'zida chigit valigi bilan o'zaro ta'sirda kinematik samaradorlikning pastligidan dalolat beradi.



5-rasm. Taklif etilayotgan to'zitqichning umumiy ko'rinishi

Montaj shartlari beriladi, tashqi kuchlar aniqlanadi va ularning qiymatlari kiritiladi. Bunda natijalar rangli grafiklar ko'rinishida ham aks ettiriladi.

Сканировано с CamScanner



6-rasm. To'zitqichning kuchlanish epyurasi



7-rasm. Taklif qilinayotgan tjtgichning mustahkamlik zaxirasini aniqlash
a) sirtning siljish epyurasi, b) deformatsiya epyurasi, v) mustahkamlik zapasi epyurasi

Diagrammalardan ko'rinib turibdiki, yaratilgan maksimal kuchlanish 71,32 MPa, siljish 0,4 mm, deformatsiya 0,0003 va eng kichik mustahkamlik zaxirasi 3 ni tashkil etdi, ya'ni mustahkamlik xususiyatlari to'zitqichnikidan past, ammo u belgilangan talablarga to'liq javob beradi.

Takomillashtirilgan besh parrakli to'zitqich ancha yuqori yuklanishlarga bardosh beradi: kuchlanishlar 71 MPa, siljishlar 0,4 mm ga yetadi, mustahkamlik zaxirasi esa 3 ni tashkil etadi. Biroq. barcha qiymatlar ruxsat etilgan ekspluatatsiya me'yorlari doirasida qoladi. Deformatsiyaning oshishi kontaktlar chastotasining oshishi bilan bog'liq. ammo aynan shu valikning bir tekis yumshashini va momiq olish sifatining yaxshilanishini ta'minlaydi.

SolidWorks modellashtirish paketidan konstruksiyani tadqiq qilish. Bo'limni tanlang, test uchun kerakli ma'lumotlarni kiriting va natijalarni taqqoslang.

Kuchlanishlar, deformatsiyalar va siljishlar epyuralarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi konstruksiya ishchi kamerada qulay kinematik muhitni yaratadi, tebranishlar amplitudasini kamaytiradi va chigit massasida turg'un zonalar hosil bo'lish ehtimolini minimallashtiradi.



8-rasm. Olingan epyuralarni taqqoslash

Yulduzcha (8-rasm) detali konstruksiyasida mavjud va taklif etilayotgan to'zitqich o'rtasidagi farq mavjud konstruksiyada 4 parrakli, taklif etilayotgan konstruksiyada esa 5 parrakli bo'lib, natijada to'zitqich konstruksiyasidagi plankalar soni o'zgaradi.

To'zitqich detallarini tayyorlash uchun materiallarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, St6 po'lati mustahkamlik va yeyilishga chidamlilikning uyg'unligi tufayli plankalar va val uchun eng maqbul hisoblanadi. Yulduzcha uchun muqobillar - alyuminiy qotishmalari va muhandislik plastiklari ko'rib chiqilgan. Ular massaning kamayishini va korroziyaga chidamliligini ta'minlaydi, lekin chidamliligi va abraziv ta'sirga chidamliligi bo'yicha SCH10 cho'yanidan past turadi. Natijada cho'yan standart konstruksiya uchun optimal variant, kompozit materiallar esa yengil modifikatsiyalar uchun istiqbolli deb topilgan.

1-jadval

Yulduzcha detalini tayyorlashning qiyosiy jadvali: Po'lat 6, alyuminiy, plastmassalar

Parametr	Po'lat 6	Alyuminiy	Plastmassa
Zichlik (g/sm3)	7,85	2.7.	1.4.
Uzilishdagi mustahkamlik (MPa)	370 - 460	90 - 200	40 - 80
Yeyilishga chidamlilik	Baland	O'rtacha	Past
Korroziyaga chidamlilik	Past	Baland	Baland
Yulduzcha og'irligi (1 dona)	1,12 kg	0,385 kg	0,199 kg
Qiymat (shartli)	Baland	O'rtacha	Past
Titrashga beriluvchanlik	Past (yuqori qattiqlik)	O'rtacha	Yuqori (egiluvchanlik)

2-jadval

Bazaviy va taklif etilayotgan to'zitqich xarakteristikalarining qiyosiy tahlili

Parametr	4 parrakli to'zitqich	5 parrakli to'zitqich
Val og'irligi (kg)	19,28	19,28
1 ta planka og'irligi (kg)	3,56	3,56
Plankalar soni	4	5
1 ta yulduzcha og'irligi (kg)	1,70	1,12
Yulduzchalar soni	6	6
Umumiy og'irligi (kg)	43,72	43,8

O'tkazilgan laboratoriya-ishlab chiqarish tadqiqotlari modernizatsiya qilingan besh parrakli to'zitqichning linterlash jarayonining asosiy texnologik ko'rsatkichlariga real ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Asosiy vazifa to'zitqich konstruksiyasining o'zgarishi chigit valigi shakllanishining kinematik sharoitlarini yaxshilashga, tebranish yuklamalarini kamaytirishga, chigit shikastlanishini kamaytirishga va momiq ajratish to'liqligini oshirishga olib kelishini tajriba yo'li bilan isbotlashdan iborat edi. Laboratoriya nazorat usullarini paxta tozalash korxonasi sharoitida haqiqiy ishlab chiqarish uskunalarida sinovlar bilan birlashtirish ishning o'ziga xos xususiyati bo'ldi.

Metodika uch turdagi - to'rt, besh va olti parrakli to'zitqichlarning 450-550 ayl/min tezlik oralig'idagi ishini taqqoslashni nazarda tutgan. Bunday yondashuv ishchi organ geometriyasining ham, uning aylanish chastotasining ham ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Ish jarayonida olingan ma'lumotlar massivi sifatning to'rtta asosiy mezonini qamrab oldi: ish unumdorligi, korpusning tebranishi, chigitning shikastlanishi va tukdorlik - linterlashdan keyin qoldiq tuklanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Сканировано с CamScanner

Ushbu parametrlar to'plami linterlash agregatining ishlashi haqida eng to'liq tasavvur beradi.

Eksperimental ma'lumotlarni talqin qilish uchun asosiy texnologik ko'rsatkichlarning ikkita omilga bog'liqligini tavsiflovchi regressiya modeli tuzildi: to'zitqichning aylanish tezligi (X_1) va parraklar soni (X_2). Model omillarning chiziqli, kvadratik va juft o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan bo'lib, bu jarayonning nochiziqli xususiyatini aniqlashga imkon berdi.

Omillar va sifat mezonlari o'rtasidagi bog'liqlik umumiy regressiya modeli ko'rinishida tavsiflanadi:

$$Y = b_0 + b_1X_1 + b_2X_2 + b_{12}X_1X_2 + b_{11}X_1^2 + b_{22}X_2^2 \quad (1)$$

buyerda:

Y - tahlil qilinayotgan chiqish parametri (unumdorligi, tebranishi, shikastlanganligi yoki chigitning tolaliligi);

$b_0, b_1, b_2, b_{12}, b_{11}, b_{22}$ –regressiya koeffitsientlari.

3-jadval

Matematik tahlil asosida tadqiqot uchun kiruvchi omillar

№	Omillar	O'lchov birliklari	Tekshirilayotgan qiymatlar
1	X_1- To'zitqichning aylanish tezligi	ayl/daq	450 /500/550
3	X_2- To'zitqich parraklari soni	dona	4/5/6

Regressiya koeffitsiyentlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, aylanish tezligi chigitning tebranishi va shikastlanishini belgilovchi kuchliroq omil bo'lib, parraklar soni esa chigit valigining toladorligi va bir tekis aralashuviga dominant ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'zaro ta'sir koeffitsiyenti $X_1 \cdot X_2$ ahamiyatli bo'lib chiqdi, bu ishchi organ geometriyasi va kinematikasining o'zaro bog'liqligidan dalolat beradi.

Tuzilgan regression model linterlash jarayonining natijaviy ko'rsatkichi Y ni ikkita texnologik omilga: to'zitqichning aylanish tezligi (X_1) va parraklar soniga (X_2) bog'liqligini tavsiflaydi. Har bir ko'rsatkich uchun quyidagi ko'rinishdagi modellar olingan:

Ish unumdorligi (Y_1):

$$Y1 = 1477.78 + 125X_1 + 33.337X_2 + 125X_1X_2 - 0.56X_1^2 - 1.56X_2^2 \quad (2)$$

Tebranish (Y_2):

$$Y_2 = 1.02 - 0.11X_1 + 0.06X_2 + 0.04X_1X_2 + 0.08X_1^2 + 0.12X_2^2 \quad (3)$$

Shikastlanish (Y_3):

$$Y_3 = 2.15 - 0.35X_1 + 0.32X_2 + 0.10X_1X_2 + 0.28X_1^2 + 0.40X_2^2 \quad (4)$$

Сканировано с CamScanner

Tukdorlik (Y_4):

$$Y_4 = 7.65 + 0.28X_1 - 0.22X_2 - 0.05X_1X_2 - 0.31X_1^2 - 0.18X_2^2 \quad (5)$$



a) b)

9-rasm. Linterning tebranish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi diagrammalar: a) to'zitqichning aylanish chastotasi; b) parraklar soni.

Eng barqaror vibrodinamik rejim 500 ayl/min tezlikda qayd etildi -. tebranish ko'rsatkichlari 0,80-0,92 mm/s darajasida bo'ldi. Aynan shu sharoitlarda chigit valigining eng bir tekis shakllanishi va uning arrali silindr tishlari bilan ravon o'zaro ta'siri kuzatildi. Vibratsiya parametrlarining yaxshilanishi, ayniqsa, besh parrakli to'zitqichdan foydalanilganda yaqqol namoyon bo'ladi, bu ishchi organning statik va dinamik muvozanatining yaxshilanishi bilan izohlanadi.

550 ayl/min da tebranish yana oshdi (1,25-1,28 mm/s). Yuqori tezlik haddan tashqari markazdan qochma yuklanishlarga, valikning qatlamlarga ajralishiga va urug'lar va ishchi yuzalar o'rtasidagi zarba kontaktlari sonining oshishiga olib keldi. Shunday qilib, tezlikni haddan tashqari oshirish jarayon dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Linterlash agregatini modernizatsiya qilish doirasida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar ishchi organlarning rostlanadigan aylanish chastotasi va besh parrakli to'zitqichning yangi konstruksiyasining linterlash sifatiga, texnologik jarayonning barqarorligiga va ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. O'tkazilgan sinovlarning muhim xususiyati parametrlarning laboratoriya nazorati va ishlab chiqarish sinovlarining kombinatsiyasi bo'lib, bu real yuklanish sharoitida modernizatsiya qilingan agregatning xatti-harakatlarining obyektiv tasvirini olish imkonini berdi.

RCHPdan foydalanish birinchi marta ikkala tugunning aylanish chastotasini alohida tartibga solish imkonini berdi, bu esa nisbiy tezliklarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish imkonini berdi. Arrali silindrning 650-850 ayl/min va to'zitqichning 450-550 ayl/min tezliklari oralig'ida barcha rejimlar kombinatsiyasi sinovdan o'tkazildi.

Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

450 ayl/min da aralashtirish intensivligi yetarli emas, momiq to'liq ajralmaganligi sababli toladorlik yuqoriligicha qoladi;

500 ayl/min da valikning barqaror, bir tekis oqimi shakllanadi - bu eng kam tebranish va urug'larning minimal shikastlanishini ta'minlaydigan to'zitqichning optimal ish zonasi;

550 ayl/daqiqada zarba ta'sirining keskin oshishi kuzatiladi, bu esa shikastlanishlarning ko'payishiga va urug' valigi tuzilishining yomonlashishiga olib keladi.

O'rnatishdan oldin ta'mirlash-mexanika uchastkasida nazorat yig'ish va tekshirish o'tkazildi. Plankalar va arrali silindr tishlari orasidagi tirqish 2,8-3,2 mm oralig'ida o'rnatildi, bu esa kontakt xavfini bartaraf etdi va urug'lik materialga ishlov berish uchun maqbul sharoitlarni ta'minladi.

Sinovlarning tajriba qismi ish rejimlarining uchta guruhini o'z ichiga oldi:

- arrali silindr: 650, 750 va 850 ayl/min;
- to'zitqich: 450, 500 va 550 ayl/min.

Har bir kombinatsiyada quyidagilar o'lchandi: mahsuldorlik, korpusning tebranishi, urug'larning shikastlanishi, urug'lik materialning tolaliligi. Sinovlar uch takrorlanishda o'tkazildi.

4-jadval

Yangi to'zitqichning ishlab chiqarish sinovlari natijalari

№	To'zitqich tezligi X_1	Parraklar soni X_2	Ish unumdorlik Y_1, кг/ч	Tebranish Y_2, мм/с	Shikastlanish Y_3, %	Tukdorlik Y_4, %
1	-1	5	1000	1,25	3,2	6,9
2	-1	5	1100	1,15	2,8	6,5
3	-1	5	1200	1,22	3,1	6,7
4	0	5	1300	1,05	2,4	7,1
5	0	5	1750	0,92	2,1	7,8
6	0	5	1650	1,02	2,6	7,2
7	+1	5	1500	1,18	3,0	6,6
8	+1	5	1400	1,10	2,7	6,8
9	+1	5	1300	1,20	3,3	6,5

Yangi to'zitqichning qo'shilishi chigit oqimining tekislanishini va arrali silindrning yuklanishini barqarorlashtirishni ta'minladi. O'rtacha rejimlarda mashina korpusining tebranish darajasi standart to'rt parrakli organga nisbatan 8-12% ga kamaydi, bu esa konstruksiya inersion massalarining yanada muvozanatli taqsimlanishini tasdiqlaydi. Eng sezilarli yaxshilanish 750 ayl/min ish tezligi zonasida

Сканировано с CamScanner

kuzatildi, bu yerda tebranish 0,95-1,05 mm/s dan oshmadi, bu ushbu sinfdagi agregatlar uchun ruxsat etilgan diapazonga tegishli.

Yangi konstruksiyani joriy etishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini baholash uchun ishlab chiqarish va moliyaviy samarani hisoblash amalga oshirildi. Asosiy ko'rsatkichlar:

Unumdorlikning o'sishi

Konovalov formulasi bo'yicha hisoblash unumdorlikning 1000 dan 1250 kg/soatgacha oshishini ko'rsatdi, bu 25% ga o'sishga to'g'ri keladi.

Yillik o'sish 150 tonnani tashkil etib, qo'shimcha 105 million so'm daromad keltirmoqda.

Xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish

Plankalar, podshipniklar resursini oshirish va vibratsiyani kamaytirish hisobiga yiliga jami 13 mln. so'm iqtisod qilindi.

Jami yillik foyda

Modernizatsiyaning yakuniy moliyaviy samaradorligi

Yiliga 118 mln so'm.

Xulosa

1. Linterlash mashinalarida chigit valigini shakllantiruvchi asosiy element sifatida to'zitqichni modernizatsiyalash zarurligi ilmiy asoslandi.

2. Birinchi marta ishchi organning optimal parametrlari o'rnatildi: maksimal unumdorlikda minimal tebranish va shikastlanishni ta'minlaydigan 5 ta parrak va 500 ayl/min tezlik.

3. Yaxshilangan dinamik xususiyatlarga va yuqori chidamlilikka ega bo'lgan to'zitqichning yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi va tajribada sinovdan o'tkazildi.

4. Linterlash texnologik omillarining regression modellari qurilgan bo'lib, ular tizimning xatti-harakatlarini bashorat qilish va rejimlarni optimallashtirish imkonini beradi.

5. Modernizatsiya qilingan konstruksiyani sanoat ishlab chiqarishiga joriy etishning yuqori iqtisodiy samaradorligi isbotlandi.

Сканировано с CamScanner

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.09.2023.T.66.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

АКРАМОВА ДИЛАФРУЗ ШУХРАТ КИЗИ

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ РАБОЧЕЙ КАМЕРЫ ЛИНТЕРА

05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и робототехнические системы

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Наманган – 2026

Сканировано с CamScanner

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2024.4.PhD/T5094 номером.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и на Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Мирзаумидов Асилбек Шухратжонович,** доктор технических наук (DSc), доцент
Официальные оппоненты:	**Азизов Шухрат Маматович** доктор технических наук, доцент
	Ортикова Камола Инсопалиевна доктор философии технических наук, доцент
Ведущая организация:	**Каршинский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится "14" февраля 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.09.2023.T.66.01 при Наманганском государственном техническом университете по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская-7, Наманганский государственный технический университет, 3-е здание, 1-й этаж, малый зал для заседаний., тел: (69) 228-76-75, факс: (69) 228-76-75, e-mail: namdtu_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета (зарегистрирована под №122). Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская-7, тел. (99869) 228-76-71.

Автореферат диссертации разослан «29» января 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 5/1 от «16» декабря 2025 года).

А.М.Маткамов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Ш.А. Махсудов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по техническим наукам, доцент

А.А.Умаров
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире наблюдается нехватка высокоэффективных технологий и оборудования для обработки хлопкового сырья, в частности, для подготовки волокнистых семян к переработке. Использование технических средств является одним из ведущих направлений. Учитывая, что в мире выращивается более 3,5 миллионов тонн хлопка и что после первичной очистки собранного хлопка в семенах остается определенное количество волокон, необходимо разработать и внедрить в практику машины, обеспечивающие очистку и отделение волокон в процессе линтерования, снижая степень повреждения семян. В этой связи большое значение имеет использование высокоэффективных технических средств и устройств,и снижающие поврежденность семян.

В мировой практике проводятся масштабные научные исследования по разработке новых высокоэффективных и снижающих повреждения решений для удаления пуха, остающегося на поверхности семяна перед посевом или перед формированием технического семени. В этой связи особое внимание уделяется улучшению конструкции, геометрии и количества лопастей одного из основных рабочих органов линтоуборочной машины – молотилки. Было установлено, что кинематическая неустойчивость традиционных 4-лопастных молотилок, повышенные силы сдвига на семенном вальце, неоптимизация массы и времени пребывания семенного валика в рабочей камере, вследствие неустойчивого распределения семенного валика вдоль пильного цилиндра, сильное повреждение семян и низкая производительность линткрной машины ограничивают качество работы. Поэтому разработка современной конструкции 5-лопастного ворошителя и доказательство его технологических преимуществ является актуальной задачей как с научной, так и с практической точки зрения.

